

KUNDUR YELIMI VA UNING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI

Inoyatova Marjona Xamza qizi

Osiyo Xalqaro Univesiteti

Tibbiyot fakulteti farmatsevtika yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kundur yelimining kelib chiqishi, kimyoviy tarkibi va farmatsevtika sohasida qo‘llanilishi o‘rganilgan. Kundur yelimi tarkibida mavjud bo‘lgan biologik faol moddalar, xususan, bosvel kislotalari va efir moylarining organizmga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, uning yallig‘lanishga qarshi, antiseptik, immunomodulyator va ehtimoliy o‘smaga qarshi xususiyatlari yoritib berilgan. Kundur yelimining zamonaviy tibbiyot va farmatsevtika sanoatidagi o‘rni, turli dori shakllarida qo‘llanilishi hamda istiqboldagi ahamiyati haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu tadqiqot natijalari kundur yelimining tabiiy dorivor vosita sifatida keng imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlari: kundur yelimi (olibanum), efir moylari, farmatsevtikada qo‘llanilishi, biologik faol moddalar, ekstrakt, kosmetologiyada qo‘llanilishi, antiseptik, yallig‘lanishga qarshi vosita

Kirish

Qadim zamonlardan buyon insoniyat tabiat ne’matlaridan shifo va turli ehtiyojlar uchun keng foydalanib kelgan. Shunday noyob tabiiy mahsulotlardan biri Arab diyorlarida o‘suvchi Boswellia daraxtidan olinadigan kundur yelimi hisoblanadi. Ushbu modda dunyoda Ladan (Frankincense) nomi bilan mashhur bo‘lib, o‘zining xushbo‘y hidi va shifobaxsh xususiyatlari bilan qadrlanadi. Kundur yelimi qadimdan tibbiyotda, va kosmetologiyada keng qo‘llanilgan. Ayniqsa, uning yallig‘lanishga qarshi, antiseptik va immun tizimini mustahkamlovchi xususiyatlari ilmiy jihatdan ham e’tirof etilgan. Bugungi kunda ham ushbu tabiiy mahsulotga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda va u zamonaviy farmatsevtika sohasida muhim o‘rin egallamoqda. Mazkur maqolada kundur yelimining kelib chiqishi, kimyoviy tarkibi, foydali xususiyatlari hamda amaliy qo‘llanilishi haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Asosiy qismi

Kundur yelimi (olibanum) – Boswellia turiga mansub daraxt po‘stlog‘idan olinadi. Uning tarkibida 5–10% efir moyi va 60–70% smola mavjud.

Bosvel kislotalari – kundur tarkibidagi asosiy faol moddalar bo‘lib, ular 5-lipoksigenaza fermentini bloklaydi, natijada yallig‘lanish kamayadi. Bu mexanizm artrit va ichak yallig‘lanish kasalliklarida muhim hisoblanadi. Efir moylari – kundur efir moyi tarkibida α -pinene, limonene, myrcene kabi moddalar mavjud bo‘lib, ular antibakterial va antifungal ta’sir ko‘rsatadi.

Farmatsevtika – kundur ekstrakti asosida ishlab chiqarilgan preparatlar bo‘g‘im og‘rig‘i, bronxit va ichak kasalliklarida qo‘llaniladi. Eng ko‘p ishlatiladigan farmatsevtik shakl. Erituvchi (spirt yoki suv) bilan ekstraksiya qilinib, keyin quritiladi. Standartlashtiriladi (30–65% bosvel kislotalar). Tabletkalar va kapsulalar tayyorlashda ishlatiladi. Spirtli ekstrakt (Tinctura). Etanol yordamida olinadi. Faol moddalar yaxshi ajralib chiqadi. Ichki qabul yoki tomchi shaklida qo‘llanadi.

Kundur yelimining biologik faol moddalari. Kundur (*Boswellia serrata*) smolasi tarkibi murakkab bo‘lib, u asosan 3 ta asosiy fraksiyadan iborat: 60–70% smola (resin), 5–10% efir moylari, 20–30% polisaxaridlar (gum). Bosvel kislotalari (asosiy faol komponentlar). Kundurdagi eng muhim biologik faol moddalar — boswellic acids bo‘lib, ular smola qismida joylashgan.

Asosiy turlari: β -boswellic acid, Acetyl- β -boswellic acid, 11-keto- β -boswellic acid (KBA), Acetyl-11-keto- β -boswellic acid (AKBA) – eng faol shakli, AKBA 5-lipoksigenaza (5-LOX) fermentini bloklaydi. Leykotrienlar sintezi kamayadi. Yallig‘lanish reaksiyasi pasayadi. Bu mexanizm NSAIDlardan farqli bo‘lib, oshqozonga kamroq zarar qiladi.

Kundur efir moylari: α -pinene (asosiy komponent), limonene, myrcene, incensole

α -pinene antibakterial ta’sirga ega. Incensole markaziy asab tizimiga tinchlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi. Antiseptik: aromaterapiyada sedativ vosita sifatida ishlatiladi. Polisaxaridlar (gum qismi) Arabinoza, galaktoza va boshqa shakarlar mavjud. Immun tizimni qo‘llab-quvvatlovchi ta’sirga ega.

Kosmetologiyada qo‘llanishi

Dermatologik foydasi: krem, malham (0.5–2%), kunlik surish,

anti-akne, yallig‘lanishga qarshi, tiklovchi, serum, tonik, kuniga 1–2 marta, teri tinchlantirish, antiseptik, efir moyi (1–2 tomchi baza yog‘ida), aromaterapiya va mahalliy qo‘llash, sedativ, yallig‘lanish kamaytirish, maska (glin + 1 tomchi moy) 10–15 daqiqa.

Poralarni toraytirish, terini yangilash. Faol moddalarni teriga yaxshi yetkazish, bioavailability oshirish.

Dermatologik ko‘rsatmalar: akne va yog‘li teriga, qizarish va yallig‘lanishdagi teriga, mayda ajin va qarish belgilari uchun yaralar va tirnash joylarida tiklashni tezlashtirish. Pigment dog‘lari va teri rangi muvozanatini yaxshilaydi.

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kundur yelimi (*Boswellia serrata*) farmatsevtika va kosmetologiya sohasida qadimdan qo‘llanilib kelayotgan tabiiy dorivor vositadir. Uning tarkibidagi bosvel kislotalari, terpenoidlar, efir moylari va polisaxaridlar turli biologik faoliyatga ega: yallig‘lanishga qarshi, antiseptik, antioksidant, immunomodulyator va anti-aging xususiyatlari mavjud. Farmatsevtikada kundur ekstrakti osteoartrit, revmatoid artritis, ichak yallig‘lanish kasalliklari va boshqa yallig‘lanishli holatlarda ishlatiladi. Kosmetologiyada esa teri yallig‘lanishi, akne, pigment dog‘lari, mayda ajinlar va elastiklik pasayishi kabi muammolarni kamaytirishda samarali vosita sifatida qo‘llaniladi. Kundurning

tabiiy biologik faol moddalariga asoslangan preparatlar, zamonaviy farmatsevtik texnologiyalar yordamida (liposomal ekstraktlar, nanoemulsiya) teriga yaxshi soʻrilishi va samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega. Ushbu kundru yelimi eng samarali yoʻl boʻlib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

11. Qoʻshimcha foydalanilgan Oʻzbekiston adabiyotlari
12. И.Ю. Ходжаев. Dorivor oʻsimliklar va ularning ekstraktlari: farmatsevtik tadqiqotlar. Toshkent, 2019.
13. Ф.Ш. Мирзаев. Bosvel kislotalari va yalligʻlanishga qarshi vositalar. Toshkent, 2020.
14. Л.Ш. Абдурахмонова. Kundur yelimi va farmatsevtik preparatlari. Buxoro, 2018.
15. Ш.Х. Рахимов. Kosmetologiyada tabiiy ekstraktlar va ularning dermatologik qoʻllanilishi. Samarqand, 2021.
16. Ўзбекистон Respublikasi Tabiiy Dorivor Oʻsimliklar Katalozi, Toshkent, 2022.
17. Н.Х. Каримова. Akne va yalligʻlanishga qarshi tabiiy vositalar: klinik tadqiqotlar. Toshkent, 2020.